

**TASVIRIY FAOLIYAT VOSITASIDA MAKTABGACHA YOSHDAGI
BOLALARNING BADIY-IJODIY QOBILIYATLARINI RIVOJLANTIRISH
METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISHNING SAMARADORLIGI**

Arslanova Umidaxon Komiljon qizi

*Namangan davlat universiteti 13.00.08 – Maktabgacha ta'lim va tarbiya
nazariyasi va metodikasi ixtisosligi 3-bosqich tayanch doktoranti.*

Tel: +998 93 448-03-96 E-mail: umidaarslanova1996@gmail.com

Annotatsiya. *Ushbu maqolada mamlakatimizda ta'lim, xususan maktabgacha ta'limga alohida e'tibor qaratilayotgani, hozirgi kunda respublika maktabgacha ta'lim muassasalari tarbiyalanuvchilarini aqliy jihatdan yetuk, jismonan sog'lom va iqtidorli ijodkor qilib shakllantirish davlat siyosati ekanligi ta'kidlanadi. Olimlarning tadqiqotlari maktabgacha yosh davrini inson tafakkuri rivojlanishidagi eng muhim bosqich sifatida qaror topganini ko'rsatadi. Shuningdek, maktabgacha yoshdagi bolalarni tasviriy san'atga o'rgatish ularning fikrlash qobiliyati, ko'rish xotirasi, ijodiy tasavvuri va badiiy didini rivojlantirishga xizmat qilishi, rasm chizish, loy ishlari, applikatsiya hamda qurish–yasash kabi amaliy mashg'ulotlar esa bolalarni maktabga tayyorlashda va keyinchalik maktabdagi tasviriy san'at hamda mehnat darslarini muvaffaqiyatli o'zlashtirishlarida poydevor bo'lishi haqida fikrlar bayon etilgan.*

Kalit so'zlar: *statistik tahlil, ko'rsatkich, natija, rasm, qobiliyat, samaradorlik, ijodiy rivojlanish, estetik tarbiya, applikatsiya, tasvir, ijodkorlik, tasviriy san'at, obraz.*

Maktabgacha yosh davrida bolalarda ilk ijodiy xususiyatlar va qobiliyatlar asta-sekin ochila boshlaydi, va bu jarayonda tarbiyachi-pedagoglarning ijodni rag'batlantirishga qaratilgan uslubiy tadbirlari katta ahamiyat kasb etadi. Avvalo, maktabgacha ta'lim muassasalarida bolalarning ijodiy rivojlanish darajasini aniqlash lozim, bu esa ularga mos tizimli model yaratishga qisman imkon beradi.

Shu maqsadda biz maktabgacha yoshdagi bolalarda tasviriy faoliyat orqali badiiy-ijodiy qobiliyatlar darajasini aniqlashga yordam beradigan metodikalarni tizimli shaklga keltirishga harakat qildik. O'tkazilgan tajriba-sinovlar asosida e'tibor qaratilishi kerak bo'lgan jihatlar aniqlandi: vizual va badiiy jihatlar, an'anaviy yondashuvlar, bolaning yoshiga mos imkoniyatlarni hisobga olmaslik, dasturlarning bir xilligi, bolalarning tez o'zgaruvchi qiziqishlari, tanlov va imkoniyatlariga mos tashkil etilmaslik, shuningdek ularning istaklarini ifoda etish va imkoniyatiga qarab ijodiy tasvirlashiga yetarlicha erkinlik berilmasligi kabi omillar.

Bajarilgan pedagogik tajriba-sinov ishlarida maktabgacha yoshdagi bolalarda tasviriy faoliyat vositasida ulardagi badiiy-ijodiy qobiliyatlarning rivojlanganlik darajasi tajriba va nazorat guruhida aniqlanib, qiyosiy tahlil qilindi. 2024–2026-yillarda uch bosqichda amalga oshirildi:

I bosqich – 2023 – 2024-o‘quv yili.


II bosqich – 2024 – 2025-o‘quv yili.

III bosqich – 2025 – 2026-o‘quv yili.

Bajarilgan tajriba-sinov ishida quyidagi omillarning mavjudligi jarayonning muvaffaqiyatini ta’minlashi ko‘zda tutildi:

- tadqiq etilayotgan jarayonni tashkil etishga qaratilgan metodik shart-sharoitlarning yaratilganligi;
- mashg‘ulotlar jarayonida zamonaviy hamda kreativ tasvirlash usullari va texnologiyalaridan samarali foydalanilganligi;
- pedagogik mahorat, estetik didni qo‘llagan holatda bolalardagi ijodiy qobiliyatlarning takomillashtirishga e’tibor qaratilganligi;
- tarbiyachining ota-onalar bilan hamkorlikda ishlashi.

Tajriba-sinov ishlari MTT tarbiyalanuvchilari ishtirokida mashg‘ulotlar davomida, faollik markazlarida, tarbiyachilar va ota-onalar bilan amalga oshirildi. Belgilangan maqsadga muvofiq vazifalar hal etildi. Tanlab olingan maktabgacha ta’lim tashkilotlarida dastlab aniqlovchi tajriba-sinov ishlari olib borildi. (3.1.1-rasmga qarang).



3.1.1-rasm. Aniqlovchi tajriba-sinov ishlari.

Tajriba-sinov natijalari asosida aniqlangan muammolarning yechimiga qaratilgan vazifalar aniqlandi, metodikalar, ishlanmalar tanlab olindi va amaliyotda qo‘llandi.

Tahlillar va amaliy ishlarni bajarish davomida maktabgacha yoshdagi bolalarda tasviriy faoliyat vositasida ulardagi badiiy-ijodiy qobiliyatlarning rivojlanganlik darajasining diagnostik metodikalari to‘plangan. Unda katta va tayyorlov guruh bolalarining badiiy-ijodiy qobiliyatlarning rivojlanganlik darajasini tashxis qilishga xizmat qiladigan diagnostik metodikalar o‘z ifodasini topgan bo‘lib, undan maxsus

mashg'ulotlardan avval bolalarning badiiy-ijodiy qobiliyatlarning rivojlanganlik darajasini dastlabki darajasini aniqlashda hamda maxsus mashg'ulotlardan keyingi badiiy-ijodiy qobiliyatlarning rivojlanganlik darajalarini tashxis qilishda va natijalarni qiyosiy tahlil qilishda foydalanish tavsiya etiladi.

Tasviriy faoliyat vositasida maktabgacha yoshdagi bolalarning badiiy-ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga yo'naltirilgan tajriba-sinov ishlarida Namangan viloyati maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmalariga qarashli Uchqo'rg'on tumanidagi 7-, 48-sonli, Uychi tumanidagi 2-, 18-sonli, Namangan tumanidagi 24-sonli maktabgacha ta'lim tashkilotlarida, Sirdaryo viloyati Mirzaobod tumani maktabgacha va maktab ta'lim bo'limiga qarashli 2-, 3- va 9-sonli davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarida, Andijon viloyati Andijon shahar maktabgacha va maktab ta'limi bo'limiga qarashli 10-, 19-, 43-, va 55-sonli maktabgacha ta'lim tashkilotlarida (jami 12 ta) maktabgacha ta'lim tashkilotlarining 539 nafar respondent-tarbiyalanuvchilari ishtirok etdi. Tajriba guruhida 274 nafar, nazorat guruhida 265 nafar tarbiyalanuvchilar ishtirok etdilar.

Bajarilgan tajriba-sinov ishi yakunida badiiy-ijodiy qobiliyatlarning rivojlanganlik darajasini aniqlashda tarbiyalanuvchilarning quyidagi bilim, ko'nikma, malaka va kompetensiyaga egaligiga e'tibor qaratildi:

- mustaqil chizish, qirqish ko'nikmalari;
- eshitib, tushunib tasvirlay olish;
- mavzu tanlashda mustaqillik;
- loy bilan ishlash usullarini farqlay olish;
- tarbiyachining harakatlarini mustaqil takrorlay olish;
- tezkorlik va atrofdegilar bilan birgalikda ishlash qobiliyati.

Dastlabki tajriba oldi sinovlar natijasida tasviriy faoliyat vositasida maktabgacha yoshdagi bolalarning badiiy-ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishda samarali qo'llanadigan quyidagi metodlar aniqlandi:

1. Ko'rsatma (demonstratsiya) metodi. Bunda tarbiyachi namunani ko'rsatadi (rasm, buyum, video). Bolalar kuzatib, o'rganadi (Ayniqsa kichik guruhlar uchun muhim)

2. Amaliy (faoliyatli) metod. Bunda bola o'zi bajaradi: chizadi, kesadi, yopishtiradi. Ushbu jarayonda "O'zim chizaman" metodi juda samarali natija beradi. Bu metodda bola aynan biror namunaga qarab emas, balki o'z tasavvuri, emotsional holati va ko'nikma-tajribalari asosida mustaqil rasm yaratadi.

3. Og'zaki metod. Bunda tarbiyachi tushuntirish, savol-javob, hikoya

Masalan: "Bu daraxt qishda qanday bo'ladi?", "G'uncha ochilganda qanday gulga aylansin?"

4. O'yin metodi. Rol o'yinlari: "Rassom bo'lamiz", "Tabiatni chizamiz"

Bunda bolalarda ijodiy erkinlik oshadi.

5. Muammoli (problem) metodi. Bunda tarbiyachi tomonidan ma'lum bir muammo ilgari suriladi, bola mustaqil yechim topishga harakat qiladi. Misol uchun: "Qanday qilib yomg'irni rasmda ko'rsatamiz?", "

6. Ranglar monitoringi. Bolalar mustaqil ravishda tanlab, qo‘llagan ranglari orqali, tarbiyachi tomonidan boladagi emotsional holatni aniqlashga qaratilgan faoliyat.

7. **“5 QADAM”** nomli, o‘yinga asoslangan ijodiy qobiliyatlarni rivojlantiruvchi metod.

Tajriba-sinov ishlari maktabgacha ta’lim tashkilotlaridagi respondent-tarbiyalanuvchilar bilan bolalarning badiiy-ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish metodikasi hamda tatqiqotda taklif etilayotgan mezonlar asosida olib borildi hamda tahlil etildi. Ushbu tajriba-sinov ishlari ketma-ket ikki bosqichda o‘tkazildi:

Birinchi bosqich - tajriba-sinov ishlarining dastlabki bosqichida tasviriy faoliyat vositasida maktabgacha yoshdagi bolalarning badiiy-ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish metodikasi bo‘yicha bolalarning dastlabki ko‘rsatkichlari aniqlandi va tanlab olingan guruhlar o‘rtasidagi farqlarini aniqlash uchun tajriba-sinov ishlari olib borildi hamda olingan natijalar tahlil qilindi.

Katta guruh tarbiyalanuvchilarida tasviriy faoliyat vositasida badiiy-ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirishga yo‘naltirilgan tajriba-sinov ishlaridan olingan natijalar (1-jadvalga qarang).

1-jadval.

MTTlar respondent-tarbiyalanuvchilarining ishtirokchilari soni

	Namangan viloyati					Andijon viloyati				Sirdaryo	
Tajriba guruhi	24	24	26	21	24	25	23	24	23	19	2
Nazorat guruhi	23	25	25	22	21	23	23	25	24	17	1
Umumiy soni	47	49	51	43	45	48	46	49	47	36	4

Olingan natijalarni tavsiflashd 4 darajali baholash tizimi qo‘llanilgan. Bunda:

- “Yuqori” daraja, ushbu darajada tarbiyalanuvchida ko‘nikmalar to‘liq shakllangan, mustaqil, ixtiyoriy va ijodiy ishlay oladi, rang, shakl, mavzu, kompozitsiya va g‘oyani ongli tanlaydi, noodatiy, original yechimlar yaratadi. Kamchilik deyarli yo‘q.

- “O‘rta” daraja, ushbu darajada tarbiyalanuvchida asosiy ko‘nikmalar shakllangan, ba’zida mustaqil, ba’zi hollarda yordamga muhtoj, ranglar va shakllardan to‘g‘ri foydalanadi, ammo umumiy-to‘liq holatda emas. Tarbiyalanuvchida ijodkorlik mavjud, ammo doimiy emas.

- “Quyi” daraja, ushbu darajada tarbiyalanuvchida ko‘nikmalar ma’lum darajada, qisman shakllangan, ko‘p hollarda atrofdegilar yordami talab etiladi, rang va tasvirlar oddiy, takror holda doimiy bir xillik, mustaqillik past, stereotipga moyillik.

- “Past” daraja, ushbu darajada tarbiyalanuvchida ko‘nikmalar deyarli shakllanmagan yoki juda sust, mustaqil ishlay olmaydi, rang va shakllar tanlashda va tasvirlashda muntazam qiyinchilik kuzatiladi. Ijodiy yondashuv deyarli yo‘q.

Mazkur bajarilgan tajriba-sinov ishlari ohirida respondentlarning tajriba guruhidagi statistik ko‘rsatkichlari, nazorat guruhidagi statistik ko‘rsatkichlarga nisbatan yuqoriligini ko‘rish mumkin.

Xulosa. Yuqoridagi ma’lumotlarga asoslangan holda, biz nazorat guruhida olingan natijalarning ozgina va tajriba-sinovdan so‘ng tajriba guruhi natijalarining sezilarli o‘zgarishini ta’kidlaymiz. Yakuniy tashxisdan so‘ng nazorat guruhi va tajriba guruhi o‘rtasidagi katta farq tarbiyalanuvchilarning maktabgaga tayyorgarlik jarayonida tasdiqlangan pedagogik shart-sharoitlarning samaradorligini ko‘rsatadi.

Tajriba-sinov ish jarayonida olingan natijalar tasviriy faoliyat vositasida maktabgacha yoshdagi bolalarda badiiy-ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirishga qaratilgan modelining ishlashi uchun ushbu ishda nazariy jihatdan asoslanganligini isbotladi.

Tadqiqotimiz natijasida, barcha tajriba-sinov maydonchalari sifatida tanlab olingan maktabgacha ta’lim tashkilotlarda, tajriba guruhidagi tasviriy faoliyat vositasida maktabgacha yoshdagi bolalarda badiiy-ijodiy qobiliyatlarining rivojlanganlik darajalarining samaradorlik ko‘rsatkichi 1.18 barobarga, o‘rtacha o‘zlashtirish koeffitsienti **12.3 %** ga yuqori ekanligini ko‘rishimiz mumkin. Bu esa olib borilgan tadqiqot ishining samarali ekanligini ko‘rsatadi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. U.K.Arslanova. “Tasviriy faoliyat vositasida maktabgacha yoshdagi bolalarning badiiy-ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish metodikasi” PhD dissertatsiyasi. 2026
2. Sh.T.Xasanova. Tasviriy faoliyatga o‘rgatish nazariyasi va metodikasi. Darslik. T.: Tafakkur. 2020.
3. Z.Radjabova. ”Bolalar san’ati”. (Maktabgacha ta’lim yo’nalishi talabalari uchun o‘quv qo‘llanma). - [Matn]/ <<Ilm-fan va innovatsiya>> 2022, 300 bet
4. Maxmutazimova yulduz Raxmatovna. Maktabgacha ta’limda STEAM texnologiyalari. /O‘quv qo‘llanma/ - Toshkent; TAMADDUN. 2022, 145 bet
5. TASVIRIY FAOLIYAT ORQALI BOLALARNING ESTETIK DIDINI RIVOJLANTIRISH. Xudoyberdiyeva Laylo. Guliston davlat pedagogika instituti ”YANGI O‘ZBEKISTON ILMIY TADQIQOTLAR” JURNALI
6. ”TASVIRIY FAOLIYAT BILAN TANISHTIRISH ORQALI MAKTABGACHA TARBIYA YOSHIDAGI BOLALARNI BADIY-ESTETIK JIHATDAN RIVOJLANTIRISHNING AHAMIYATI”. Arslanova Umidaxon Komiljon qizi. NamDPI, “SCIENCE AND INNOVATION” xalqaro ilmiy jurnali “MAKTABGACHA TA’LIMDA KOMPETENSIYAVIY YONDASHUV

MASALALARI: MUAMMO VA YECHIMLARI” mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallar to‘plami 2025-yil 6-7-may